

ANTROPONIMLAR LINGVOMADANIY KOD SIFATIDA

Iqboloy Fatxiddinova Faroxiddin qizi
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Andijon davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6655107>

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslikda antroponimlarning o'рни haqida so'z bordi, o'zbek xalq ismlaridan misollar keltirildi, tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: antroponim, ism, familiya, o'zbek, ingliz, rus madaniyati, ism qo'yish jarayoni.

Shaxsiy ismlar olamning lisoniy va madaniy manzarasini eng muhim milliy tarkibiy qismidir. Ismlarni tahlil qilishdan oldin ism turli madaniyat vakillari uchun nimani anglatishini ko'rib chiqaylik. O'zbeklar uchun va ruslar uchun ism bolaga tug'ilganda qo'yilgan "ism"ni anglatadi (Shahlo). Ingliz tilida esa bu so'z ham ism, ham familiya ma'nosini beradi (Jon Klinton). Amerikaliklar shaxsiy ismni farqlash uchun ism uchun "first name" va familiya uchun "last name"ni, Britaniyaliklar esa ismga "name", familiyaga "surname" so'zlarini qo'llashadi.

Ma'lumki, turli madaniyatlarda yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism qo'yishda turli xil an'analar mavjud. Sharq mamlakatlarida ismlar, asosan, oila kattalari, otalar tomonidan qo'yiladi. Bunda, ayniqsa, oilaning katta vakillari zamonaviy yoki urf bo'lgan emas, balki o'zlarining bobo yoki buvilarining ismlari, yoqtirgan mumtoz asarlar qahramonlari ismlari, tarixiy ismlarni tanlashi ko'p uchraydi. Oilaning yosh vakillari tomonidan farzandga qo'yiladigan ismlar, asosan, zamonaviy va urfda bo'lib, ommalashgan ismlar qatorida bo'ladi.

O'zbeklarda qadim-qadimdan chaqaloqning ismi baxt va omadga bog'liq, ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega deb qaraladi. Ism bola tabiatiga mos tushmasa, u kasalikka chalinaveradi, yaxshi inson chiqmaydi degan qarashlar ham mavjud bo'lgan. Vaqtlar o'tib avlodlar almashib, fikrlar ham, odatlar ham zamonga va odamlar dunyoqarashiga mos tarzda o'zgarib boradi va, albatta, bu o'zgarishlar ham tilda namoyon bo'ladi.

"Chaqaloqqa qo'yilgan ism uning taqdiriga ta'sir qiladi" deyilgan tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo'lib yuradigan vositaga aylantira borgan.

O'zbek xalqi qadimdan ism qo'yish jarayonida Yaratganning ismlariga bog'lagan holda, yoki payg'ambarlar, avliyo va o'tgan ajdodlar nomlari bilan atagan holda ism tanlashgan. Bundan tashqari bola tug'ilgan vaqtda biror ro'y

bergan hodisaga, ota-onaning holatiga, orzu-istaklariga bog'lab ism qo'yiladi (Quvonchoy, Murod, Yodgor, Baxtiyor, Sevinch, Shukrona).

Qutli, Qutlikeldi, Davlatqadam, O'rozqadam kabi ismlarda oilaga kelgan omad va muvaffaqiyatlar bolaning tug'ilishi bilan bog'lanadi va shunga ishora qilinadi.

Bag'ishlov ismlarining o'zi bolaning tug'ilishi va etnologik tushunchalarga nisbat berish orqali namoyon bo'ladi. Bu kabi ismlarni quyidagicha ma'nolar ifodalanadi: Jumladan, Keldixon, Kelsin, Mehmonoy, Mehmonbek, Lozim, Lozima kabi nomlarda ota-onalarning tug'ilgan chaqaloqqa munosabati ifoda etiladi.

Bir qator ismlarda chaqaloq tug'ilgan paytda tabiatning biror hodisasi yuz berayotganligi tasvirlanadi: Yomg'irboy, Yomg'irchi, Yog'inboy; jalaboy; Yildirim (Chaqmoq); Oydin; Dovulboy, Dovulli; Do'lboy, Do'lchi; Oyto'ldi, Oyto'liq; Qirovboy (Shudring); Qorbola, Qoryog'di, Qoryigit, Qorkeldi, Qorli va boshqalar

Shuningdek, o'zbek ismlari tizimining katta qismini diniy tushuncha, tasavvur va aqidalar bilan bog'liq bo'lgan ismlar tashkil qiladi. Bu jihatdan ham ismlarni bir nechta guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Bolaning tug'ilishi, farzandli bo'lish Ollohning xohish-irodasiga bog'lanadi: Tangriberdi, Tangribergan, Olloberdi, Haqberdi, Xudoybergan, O'g'onberdi, Egamberdi, Berdirahmat. Bunday ma'noli ismlar oxiri -ulla (Alloh) komponenti bilan tugagan ismlarga tegishli: Baxshulla, Nasibulla, Ne'matulla, Inoyatulla, Rizqulla, Shafqatulla, Tuhfatulla, Atoulla;

2. Ism Allohning turli atributlarini anglatuvchi nomlarga -ulla, -bergan, -berdi, -ato kabi komponentli qo'shma va so'z ism sifatida tanlanadi: Azizulla, Ahadulla, Karimulla, Majidulla, Nurulla, Rahmonulla, Samadulla, Fathulla, Xayrulla, Karimberdi, Xudoybergan, Berdirahmat;

3. Bolaga Allohning bandasi, quli, xizmatkori degan ma'noni anglatuvchi ismlar qo'yiladi. Bunday ismlarni alohida so'zlardan yoki komponentlaridan birida abdu-, -qul, -g'ulom ishtirok etgan nomlar tashkil qiladi: Abdurahmon, Abdulaziz, Orziqul;

Odatda, ism go'zallik ramzi bo'lmish yorug'lik, nur tushunchalarini anglatuvchi so'zlardan tanlanadi, bolani ana shunday xususiyatga ega bo'lsin deb tilashadi: Balqi (barq urgan, yashnagan), Balqin (yaltiroq, chaqnab turuvchi), Bahiya (nurli, ravshan), Zulfinur, Anvar, Anvara, Nizora (go'zallik nuri), Nurbadan, Nurliro'y, Nurliqo, Nurlig'oyat, Shamsinur.

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologiyaning bir qismi sanalgan antroponimlarni o'rganish, ularni chuqur tahlil qilish sohaning yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zME, 2010 (uchinchi nashri).
2. Kenjayeva S.E. O'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingivistik tadqiqi. nom...diss. avtoreferati. -Toshkent , 2011.
3. Begmatov E., Uloqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008.
4. Баскаков Н.А. Элемент гул «роза, цветок» в составе каракалпакских имен // Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978.
5. A.Odilov. ANTROPONIMLARNI LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTDA O'RGANISH.www.innacademy.uz